

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi

Muhammad Yusuf
nomidagi
Jod maktabi
o‘quvchilarining ijodidan
namunalar

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2024

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(5O')

A 90

Loyiha rahbari

Hilola Umarova

Ahmadullayeva, Sh. Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi [Matn]: to‘plam / Sh. Ahmadullayeva [va boshq.]; muharrir S.Nazarov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 116 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrlaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalarida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsnı shakllantirish maqsadida Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(5O')

© G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2024

ISBN 978-9910-9138-4-6



Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



MUHAMMAD YUSUF
NOMIDAGI
ijod maktabi

Muhammad Yusuf nomidagi *Ijod maktabi*

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
tashabbuslari bilan yosh avlodni
vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga
vorislik ruhida tarbiyalash,
zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda
badiiy adabiyot va boshqa ijod
sohalarida jahondagi tengdoshchlari
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor
shaxsni shakllantirish maqsadida
Muhammad Yusuf nomidagi ijod
maktabi tashkil etilgan.



**Shahnozabonu
Ahmadullayeva**
11-sinf o‘quvchisi

NIDO

*(Erkin Vohidovning “Nido”
dostonini o‘qib...)*

Hayqirdingiz tog‘lar bag‘ridan,
Achchiq-achchiq sadolar keldi.
Murg‘akkina qalbingiz aro,
Urush degan balolar yeldi.

Ayriliqlar chang soldi bexos,
Dunyo chappa aylandi go‘yo.
Kecha shirin orzular bog‘in,
Sarlavhasi bo‘ldi zim-ziyo.

Bolalikning shodon bog‘ida,
Tutmadingiz kapalaklarni.
Erta bahor yomg‘ir so‘ngida,
Kutmadingiz kamalaklarni.

Shum urushning qonli vahshati,
Misrangizga sachratdi qonlar.
Necha yuz ming Erkinjonlarning,
Nidosidan bitdi dostonlar.

Ona yerning sillasi qurib,
Dardli olam tang‘idi boshin.
Tal’at, Rustam, Xol aka kabi,
Million inson to‘kdi ko‘z yoshin.

Lekin afsus, urushning nomi,
Kezib yurgan ekan samoda.
Yana qancha murg‘ak jonlarning,
Fig‘onlari kezmish havoda.

Goh Ukrain, gohi Rossiya,
O‘qlar bilan “siylar” bir-birin.
Evoh sho‘rlik Hamas yurtiga
Qayerlardan keldi bu qirg‘in?

Taqdiringiz takrorlandi, dod,
Necha ming-ming go‘dak ohida.
Qizil qonli ko‘ylak hilpirar,
Ota ekkan o‘rik shoxida.

Hamma mag‘lub, hamma yutqazdi,
Asir bo‘ldi g‘azabga olam.
Dunyo qancha jang ko‘rgan bo‘lsa,
Barchasiga uyatli odam.

Siz istagan tinchlik zamonda,
Mening kunim shodon o‘tajak.
Kimki go‘zal hayot istasa,
Inshoolloh, shaksiz, yetajak!

Bobojon, siz she’rlarda mangu,
Zarvaraqlar ichra yashaysiz.
“Yoshlik devoni” ga qarasam,
Xotiramga gullar to‘shaysiz.

Siz aytgan hayqiriq yodimda,
Qo‘llarni qo‘llarga tutgaymiz.
Eng quvnoq sadolar ostida,
Eng yorqin kunlarni kutgaymiz!

Asrdosh-tengdoshim, qo‘l oching,
Shoirning ruhlari shod bo‘lsin!
Yaratgan javohir so‘zлari,
Sizlarga, bizlarga yod bo‘lsin!

MEN O‘SHA...

Men o‘sha
kichkina bilmaysiz,
Ko‘chalar changitib o‘ynagan.
Qishloqqa qo‘l siltab ketgan-u
Va lekin shaharga ko‘nmagan.

Men o‘sha
Hech kimga o‘xshamas,
Va hech kim aytolmas bir so‘zman.
Zaminda yuragin o‘stirib,
Osmonga uy qurgan bir qizman.

Men o‘sha
Sizningcha uyquchi,
Saboga salomlar yo‘llagan.
Kurtakka sirlarin shivirlab,
Kapalak hukmiga yo‘lagan.

Men o'sha
Tordan tor xonali,
Dunyodan keng bitta ko'ngilman.
Olamga xushbo'y hid taratgan,
Gulzorda rayhonga singilman.

“SENI KUYLAYMAN HAYOT”

(Zulfiyaxonim she'rige nazira)

Yashash hissi ajib tanda kezganda,
Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda,
Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,
Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda,
Seni kuylayman, hayot!

Ko'klam ko'z yoshidan bilsa-da sirim,
Kibor qoyalarda orzular uyum.
Goho dengiz kabi toshib betinim,
Gohi yuragimga ko'milib jim-jim,
Seni kuylayman, hayot!

Har fasl kuch berar armonlarimga,
Hulkarim chiroqdir osmonlarimga.

Omondan omonlik ko‘rsatib go‘yo,
Olov purkasang-da hijronlarimga,
Seni kuylayman, hayot!

Sen asl dugonam, bolamsan, onam,
Shodligim, quvonchlar tug‘ilgan xonam,
Mehrdan yaralgan guldasta misol,
Oppoq libosdagi bahoriy olam,
Seni kuylayman, hayot!

Har sahifang nelarni tutmog‘i gumon,
Balki, bir maktubing baxt, biri armon.
Jisming ne? Ruhingni bag‘rimga bosib,
Yana barchasidan topmoq-chun darmon,
Seni kuylayman, hayot!

Kuylayman, kuylayman, sensizlik og‘ir,
Sardaftar, sarlavham Hamid Olimjon.
Har lahza bag‘ridan tabassum bilan
Meni tutqazganing bir quchoq imkon,
Seni kuylayman, hayot!

SALOM, TANSIQ BAHOR!

(*Zulfiyaxonim tilidan monolog*)

Salom tansiq bahor, salom, o'ktam tong,
Salom, qish qahridan omon chiqqan oy.
Seni kutaverib men horib ketdim,
Salom, hijronlarga berkingan chiroy!

Laziz tuyg'ularim asradim senga,
Derazam oldini gullatgan o'rik.
Men shoir jismini yo'qotgan kundan,
Nursiz hayotimga sen bo'lding sherik.

Kuylarim mazmuni armonga to'ldi,
Muzni yelkalagan qish emas, ishon.
Menga tirkak bo'lib yelkadosh hayot,
Qayta yashamoqqa berdi-da imkon.

Endi bir jismimda ikki shoir jam,
Ikki go'zal bog'ga taratdim ifor.
Ammo necha yilki ikkimiz pinhon,
Hamid Olimjonni izlaymiz, bahor...

Injima, sog‘inchim – Navbahorginam,
Oppoq gullaringda totli bayotmiz.
Sen takror ekansan, demakki, birga,
Shoir yodi bilan mangu hayotmiz!





Gulbadanbegim
Aliqulsova

11-sinf o‘quvchisi

OGAHIY – HAMISHA BARHAYOT

Xorazm!

Bag‘ringda ulg‘aygan ne-ne daholar,
Necha ming zotlarga bo‘lding sen bayot.
She’riyat gulshanin gullatgan shoir
Ogahiy dillarda mangu barhayot!

G‘azal bo‘stonida charx urgan humo,
“Navro‘z”i baxsh etgan dillarga hayot.
“Iqbol bog‘lar”iga yetaklar ohang,
Ogahiy tillarda mangu barhayot.

“Oshiqlar tumorı” yodimda har dam,
O‘qisam, yuraklar qo‘msaydi hayhot.
“Saodat bog‘i”ga chorlagan daho,
Ogahiy kuylarda mangu barhayot.

Nasihat shodasin olsam qo‘limga,
Ibratlardan mudom topaman najot.
Hikmatni muhrlab qo‘ygan dillarga,
Ogahiy qalblarda mangu barhayot.

Bugun uning nomi o‘chmas tillardan,
Shoh baytlari berar ko‘ngilga qanot.
Foniy hayotida boqiy nom olgan,
Ogahiy o‘lmaydi, mangu barhayot!

YURT POSBONLARI

Vatan – bu so‘zlarning eng javohiri,
Qo‘riqlagay uni mard posbonlari.
Qo‘rg‘onlari butun gard yuqtirmas hech,
Sadoqati bois pok osmonlari!

Biz – Shiroq avlodi, Temur surriyodi,
Bobolari buyuk yurt farzandimiz.

Najmiddin Kubroga lol qolgan jahon,
Vataniga sodiq xalq dilbandimiz.

Biz – o‘zbek, beklarga xos xislatimiz,
Alpomish safdoshi, pahlavonlari.
Jaloliddin ruhi qo‘llaydi bizni,
Xalq duosin olgan mard sultonlari.

Bizlarda mujassam tinchlik timsoli,
Ulug‘ karvon uzra sarbon bo‘lgaymiz.
Sizda aks etgaydir yurtim iqboli,
Vatanga tirgag-u, qalqon bo‘lgaymiz!





**Mohlaroy
Zafarjonova**
11-sinf o‘quvchisi

JO‘JA

Jo‘ja boqdim birtalay,
Katta emas harqalay.

Dum-dumaloq ko‘zлari,
Mayin sariq yuzlari.

Yosh boladay sho‘x ekan,
Lek onasi yo‘q ekan.

Dadam bilan qaraymiz,
U yayrasa, yayraymiz.

Hali kuchga to‘ladi,
Tovuq xola bo‘ladi.

Har birini asrayman,
Kuzgacha men qarayman.

Jo‘ja ulg‘aygan chog‘i,
Quradi tuxum tog‘i.





**Odina
Rahmatullayeva**
11-sinf o‘quvchisi

QISHLOQ

Mana qishloq.

Mana boshpanam.

Beg‘ubor yoshligm o‘tgan ko‘chalar.

Shaharda bedorman, xuddi begona,

Tonglarga ulanib ketar kechalar.

Buvim aytgan o‘sha “Yoriltosh”larda

Qolib ketdi mening sodda yoshligm.

Osmondan yulduzlar sanagan kecha,

Tongda olib qochdi bu beboshligm.

Devorlarda qoldi men chizgan surat,
Soyda tolpopuklar kechirsin meni.
Mendan ranjimakin partadosh yigit,
Javob yozolmadim xatingga sening.

Men oydin yo‘ldaman orzular bisyor,
Qishlog‘im, duo qil Oydin qizingni.
Maqsadlar bog‘idan guldasta bilan,
Yorug‘ qilib qaytgum nurli yuzingni.





Ziyoda
Abdujasilova

11-sinf o‘quvchisi

ULAR VATANNI QO‘RIQLAGANLAR

(*Hikoya*)

Har gal harbiy akalarimni ko‘rganimda ular-da aziz va jannatmonand Vatanimning siymosi-ni tasavvur qilaman. Chunki Vatan – bu mardlar qo‘rg‘oni, demakki, harbiylarimiz yuzidagi shi-jroat, qalbidagi qo‘rqmaslik va jasurlik tug‘ilib o‘sgan zamindan olgan kuchi, quvvatidir.

Mardlik nafaqat harbiylikda, balki, onasini, opasini, singlisini, oilasini himoya qila oladigan, ularning sha’ni uchun har narsaga tayyor ota va akalarimizda ham mujassamdir. Bejiz ularni yurt o‘g‘lonlari demaydilar. Men uchun bobom

mardlik timsoli, tog‘alarim, ukam, tengdoshlarim jasur yigitlardir. Er kishining qalbida mardlik bor ekan, uning muhabbatи yurtni asrashga yetadi.

Buvijonim menga bir rivoyat aytib bergen edi. Bir qishloqda hamma erkaklar tirikchilik vajidan har tarafga ketib, qo‘rg‘onda ayollar, keksa kampirlar va atigi bir nafargina o‘g‘il bola qolgan ekan. Qo‘qqisdan bu joyni talonchilar bosibdi. Qo‘liga qurol olib elni himoya qiladigan hech kim yo‘qligi sabab hech qanday qarshiliksiz qo‘rg‘onni qo‘lga kiritishibdi. Mol-u holini talashibdi. Baqir-chaqir, dod-voy bo‘layotgan mahal qo‘liga kattagina kaltak tutgan o‘n yoshli bola talonchilar sardorining ro‘parasidan chiqib, otini cho‘chitibdi, oqibatda u yerga qulab tushibdi. Bola yugurib kelib talonchining boshiga kaltak tirabdi-da:

— Odamlaringga ayt, qo‘rg‘onimizga zarar keltirmasdan narsalarimizni qaytarsin va bu yer dan ketishsin, — debdi.

Aslida bolani bir musht bilan yer tishlatish mumkin edi. Ammo uning qo‘rqmasligiga tan bergen sardor qo‘l ostidagilarga buyruq beribdi:

– Hech kim bir ushoq narsani olmasin. Ortga chekinsin va qo‘rg‘onni tark etsin!

So‘ngra o‘rnidan turib, bolaning yelkasiga qoqibdi:

– Yasha o‘g‘lon! Mardligingga tan berdim. Haqiqiy er kishining katta-kichigi bo‘lmaydi. Shu yoshingda qo‘rqmasdan mening ro‘paramaga chiqa olding, agar istasam, seni qilichimning uchi bilan o‘ldirardim.

Ammo bir qarich bo‘ying bilan menga tik qarashning o‘zi botirlilik, jasorat. Sening otang o‘zingdan yuz barobar qo‘rqlas ekaniga ishonoman. Chunki marddan mard tug‘iladi.

Mendan qo‘rg‘onning erkaklariga salom ayt, debdi-yu otiga minib, bu joydan uzoqlashibdi. Keyinroq shu bolaning avlodlari ichidan Jalolid-din Manguberdi, Temur Malik kabi vatani uchun jonini tikkan, dushmandan qo‘rqlay xalqining ozodligi uchun kurashgan botir jangchilar chiq-qan ekan.

Men uchun mardlik ajdodlarimizdan, bo-bo-yu momolarimizdan qolgan buyuk merosdir. Dushmanga bo‘yin egmagan, xalqining ozodligi evaziga jonini tikib, burni kesilgan Shiroqning

jasoratida, yarim dunyoni egallagan Amir Temur bobomning adolatida, o‘z yurtidan uzoqda bo‘lsa-da, yangi bir davlat – saltanatga asos solgan Bobur bobomning aql-u zakovatida, satrlari-ga hurlik uchun kurashish da’vatin singdirgan Cho‘lpon bobomning asarlaridadir MARDLIK...

Odatda biz mardlikni faqat katta ishlarda ko‘rishga odatlanganmiz. Va aksar hollarda bu fazilat erkaklarga yarashadi, deb tushunamiz.

Onajonimning aytishicha, qizlar orasida ham bu fazilatga moslari talaygina ekan. Masalan, kuchsiz dugonasini hamisha himoya qilib yuradigan o‘rtog‘ini “u mard qiz edi”, dedi. Yana qo‘shnisining chaqalog‘ini yong‘indan saqlab qolgan ayol haqida gapirib “opamiz shunaqa mard, qo‘rqmas, doim odamlarga yordam berishga harakat qiladi”, dedi.

Bu voqealar mening mardlik haqidagi tasavvurlarimni yanada boyitdi. Demak, biz qizlar ham vatanimizning, oilamiz, yaqinlarimizning tinchligini, baxtiyorligini saqlashga hissa qo‘shsak ham o‘z o‘rnida mardlikka kirar ekan.

Men mana shu jihatdan eng mard, eng botir va qo‘rqmas himoyachilarimiz – ONAlarimiz

degim keladi. Chunki onalar bolalarini nafaqat yomonliklardan, hatto ozgina dilxiraliklardan ham himoya qiladilar, ular uchun jonlarini fido qiladilar. Kitoblarimizda esa bunga o'nlab missollar borki, ularning tag zaminida haqiqat yotadi. Ikkinci jahon urushi yillarda qanchalab opa-singillarimiz janggohlarda erkaklar bilan tengma-teng turib dushmanga qarshi kurashib, mardlarcha halok bo'lganlar, qanchalab onalarimiz begona bolalarni asrab olib fidoyilik ko'rsatganlar, chunki ularning qalbi, borlig'i mardlikdir. ONAlarning mardligini ta'riflashga so'zlarim kam, tasavvurlarim kambag' aldir. Dunyodagi jami mardlarning mardi – bu ONAlarimiz. Chunki eng qo'rmas jangchi, mard o'g'lon, eng botir askar ham aynan onadan tug'iladi va uning bag'rida katta bo'lib, ana shunday kuchli fazilat sohibiga aylanadi.

Biz onani Vatanga, Vatanni esa onaga qiyoslaymiz. Bas, shunday ekan, Vatanga muhabbat aslida mardlikdir....

MUHAMMAD YUSUFNING “ONAMGA XAT” SHE’RI

I loved as you instructed, everyone near,
Trusted all, yet the outcome is clear:
My love approached a friend's abode,
But daylight transformed affection to loathe.

“The dazzling stars, they laugh so bright,
What has befallen me, now crystal clear.
Like a foal, from the herd, I'm adrift,
In the green field, distant, I appear.”

“My steps echo the tracks of passing cars,
Wandering, my gaze fixed on rugged rocks.
Neighing silently, a horse's whisper,
I find solace in tears, a calming paradox.

I loved as you instructed, everyone near,
Trusted all, yet the outcome is clear:
My love approached a friend's abode,
But daylight transformed affection to loathe.

“Ah, about love. It's charming for the heart,
Do not wish for what fate doesn't grant joy.
Always be a blessing to my fortune,
Your blessed son – Muhammad Yusuf.”

**MUHAMMAD YUSUFNING
“ALPOMISHLAR YURTI BU DIYOR”
SHE’RI**

The homeland of the Alpomish people, they say,
Where there were brave Rustams with stories.
From that land, the autumn wind blows,
And from that land, the spring begins.

Adorned by the beauty of the homeland,
With long, graceful hair, there is Barchinoy.
If the free-spirited girls fill the streets,
Certainly, joy flows freely there.

I, too, am a child of this land,
With the apple of the eye and beloved child
Having grown up in the freedom,
I, too, love my country from depths of my heart

Muhammad Yusuf nomidagi *Jod maktabi*

The homeland of the Alpomish people, they say,
Where there were brave Rustams with stories.
From that land, the autumn wind blows,
And from that land, the spring begins.





Salohiddin Rahimjonov

10-sinf o‘quvchisi

ONA TABIAT

Bir kun Ona tabiat xo‘b charchabdi, horibdi,
Haddan ortiq azobga chiday olmay qolibdi.
Erta tongdan hansirab, badani terlab Quyosh,
Buzilgan bu qonunga bera olmasdan bardosh.

Chorladi atrofiga yomg‘ir, shamol tog‘larni,
Birma-bir xazon bo‘lgan qarag‘ayzor, bog‘larni.
Chorladi muzliklardan gumonda qolgan hisni,
Erta kelgan bahorni, yomg‘irsiz o‘tgan kuzni.

Nabotot a’zolarin topib keldi shamolvoy,
Yig‘indan kimki qochsa, holiga bo‘ladi voy...

Aybdor kim bo'lsa ham javob bersin deyishdi,
Barchasi majlisga deb, qator-qator kelishdi.

Hammaning ahvoli tang, fasllar besaranjom,
Gar aybdor topilsa, olajakmiz intiqom!
Suvning dardi bir olam, sillasi qurib dedi:
— Gar tugasam, avlodga mensiz berasiz nen?

Tuproq zorlandi sekin, gezarib ketgan labi,
Qaqrab ketdi badanim, sho'rlasam, ayb
mendami?

O'rmonzorlar shovullab arzin ayladi bayon,
Biz bergen toza havo bir zumda ketdi qayon?

Hamma aytib borini chor atrofga jovdirar,
Tabiat jigarlari najot tilab qoldilar.
Hamma Iqlim boboning hukmiga ildi qulqoq,
Ne qilsak tabiatga qaytib keladi maroq?!

Dedilarki, odamzod haddida turmoq kerak,
Ekologik madaniyat qasrini qurmoq kerak.
Isrof ortida turgan azoblarni bilsinlar,
Devorgamas yurakka insof so'zin ilsinlar.

Havo, tuproq, dalani ajratmasinlar zinhor,
Shunda o‘rnida kelar, kuz, qish, yoz bilan bahor.
Demak, bizning umrimiz odamlarga daxldor,
Tamom, insoniyatga yetib borsin bu Qaror!

SHIFOKORLARGA TABRIK

Vatan ardog‘ida, yurt duosida
Millat xaloskori, iftixorimsiz.
Oppoq libosdan-da niyati oppoq,
Kasbiga munosib shifokorimsiz!

Dardini dardmanddan ilgari sezgan,
Tunlar mijja qoqmas tong-nahorimsiz!
Bashar baxti uchun qasamyod qilgan,
Ibn Sino nasli – shifokorimsiz!

Azoblar ko‘ksidan najot topganim,
Fidolar bog‘ida betakrorimsiz!
Ko‘ngilga xushnudlik beruvchi aziz,
El kaftida duo – shifokorimsiz!



**Marjona
Umarova**

10-sinf o‘quvchisi

GO‘ZAL O‘ZBEKISTONIM!

Xushsurat, xushqadimsan,
Ham navqiron, qadimsan,
Shiddati tez odimsan,
O‘ziga bek zabonim,
Go‘zal O‘zbekistonim!

Har o‘g‘loning – pahlavon,
Har qizingda bor imkon,
Ixtiroga bo‘l makon,
Eng beg‘ubor osmonim,
Go‘zal O‘zbekistonim!

Anhor sevgan yalpizim,
Buyuklardan ildizim,
Yer yuzida yolg‘izim,
O‘zing shohsan, sultonim,
Go‘zal O‘zbekistonim!

Tenglik deding dunyoga,
Keng yo‘l deding ziyoga,
Fido bo‘lgan fidoga,
Ikki dunyo makonim,
Go‘zal O‘zbekistonim!

Bag‘ringda kunim bayram,
Har tonging jonga malham,
Armon bilma sira ham,
Tomirda oqqan qonim,
Go‘zal O‘zbekistonim!

FORMULA

Tushunmam men seni negadir,
Formula – sevimli xitobing.
Doimo asabga tegadi,
Fizika atalmish kitobing.

Qonunlarni ko‘rdim varaqlab,
Uqmadim-da, biror ma’noni.
“F1 taqsim”... yana nimadir,
Fizikangning qaysi qonuni?

Nyuton, amperlar ko‘z tikib,
Turar ekan yo‘ling poylashib,
Mening ham qalbimni o‘qi deb,
Olaymi kitobga joylashib?

Qara...

Ko‘zim satrlari keng,
Shu fizikning boqishiga zor,
Va ularda “Q-ko‘paygan teng”,
Muhabbatning formulasi bor.

Hayratdaman, anglay olmaysan,
So‘zlayapman yo‘lda qoldi or.
Sevgi degan, ishqнома degan,
Formulasiz olamlar ham bor...



**Yoqutoy
Mo'minova**

10-sinf o'quvchisi

SHUKRONALIK HISSI

O'quv yili oxirlagan sari yozgi ta'tilni orzib kutish men uchun odat tusiga kirib qolgan. Imtihonlar tugab, jonajon maktabim bilan yangi o'quv yiligacha xayrashib, ta'tilni maroqli va mazmunli o'tkazish maqsadida bir dunyo kitoblarim bilan mehribon buvimnikiga yo'l olaman. Buvim hozirda shaharda yashasa ham asli qishloqdan. Qishloq odamlariday mehnatkash, qo'li ochiq va bag'rikeng. Hatto shevasini ham unutmagan. Buvim o'zi yolg'iz yashaganligi sabab mening tashrifim ham qalbini quvonchga to'ladiradi. Turli taomlar bilan siylaydi. Buvim bilan

birgalikda ko‘p suhbatlar quramiz. Onamning, xolalarimning bolalik yillarini, yoshligini hikoya qilib berishlari menda qandaydir iliq hislar uyg‘otadi.

O‘zining bolalik va o‘quvchilik yillari haqidagi voqealarни eshitganimda men xuddi ertak tinglayotgandek bo‘lardim. Turmush qiyinchiliklari, og‘ir mehnat, maktabdagi sharoitlar...

Buvimning har bir hikoyasi insonni o‘ylantirmay iloji yo‘q. Nahotki bizning ota-bo-bolarimiz shunday kunlarni boshidan kechirgan bo‘lishsa deb, uzoq o‘ylanaman. Qalbimda shukronalik hissi tobora avjlanadi. Buvimning hikoyalarini yarim tungacha tinglab, qanday uxlab qolganimni ham bilmas edim. Lekin baribir bувим tong qorong‘isida turar, taharat olib kelgach, qo‘llarini duoga ochgan holda uzoq vaqt o‘tirar edi. Yotgan joyimda bувимning ibodatini kuzatish, duolariga qulq solish menga yoqar edi. Duolarida Allohdan tinchlikni, mahalla-ko‘y osoyishtaligini, bemorlarga shifo, farzandsizlarga ne’mat, biz farzand va surriyotlariga omad, ilm-ma’rifat, halollik, o‘tganlarga jannat so‘rashdan charchamas edilar.

Bu yil yoz oyida buvimning akasi dard bilan vafot etdi. Buvimlar ota-onadan o'n bitta farzand edilar. Mehribon buvijonimga bu judolik og'ir kelganini yuzlaridan, kayfiyatidan yaxshi anglar edim.

Bir kuni tongda buvim odatdagidek joynamozda uzoq duolar, niyatlar qildi. Keyin esa past ovozda "Onam" deb yig'lay boshladi. Buvimning onalarini aniq eslay olaman. Onamning aytishicha, 89 yoshida vafot etgan. Onam o'z buvimsini yaxshi xotiralar bilan tez-tez eslab turadilar. Men buvimning "Onam", deb yig'lashiga hayron bo'ldim. Ertalabki nonushtadan so'ng buvimning chehrasi yorishganday bo'ldi. Bundan foydalanib buvimning tong sahardagi yig'isi sababini so'radim. Buvim bir nuqtaga tikilib turgach:

– Bolam, jigar o'ti juda og'ir judolik ekan. Buni hech his qilmagan ekanman. Akamning vafoti meni shu holga soldi.

Buvimdan nega akasidan ayrilgach, "Onam" deb yig'laganining sababini so'radim. Shunda buvim shunday javob qildi:

– Bolaligimizda onam tez-tez yolg'iz qolishni xohlab, eski, qorong'i uyimizga kirib olib

Qur'on tilovatlar o'qir, yig'lar, duolar qilar edi. Bizga onamning bu holati hech ham yoqmas, hatto dadam daladan qaytgach, onamning bu holatini dadamga "chaqib" berar edik. Dadam esa bunga javob bermay, aksincha, boshimizni silagan holatda, onangizni xafa qilmang, deb qo'yari edi. Voyaga yetgach, aqlimni tanib bu holatning sababini so'raganimda onam rahmatli, otasi va ikki nafar akasi urushga ketib qaytib kelmaganliklarini, otasi bedarak ketganligi, akalaridan esa "qora xat" olganliklari haqida so'zlab bergen. O'sha paytdan to hozirga qadar onam sho'rlikning gapini, his-tuyg'usini his etmaganimdan, onam uchun yupanch so'zlarini ayta olmaganimdan juda afsusdaman. Mana, endilikda o'zim shu holatga tushib akamdan ayrılib, mushfiq onam dardini, qayg'usini his etib turibman. Yomonlik qilib, xatolar qilsak, shukronalik hislarini unutsak, chiroyli hayot uchun, tinch zamon uchun, bugungi osuda turmush uchun jonini fido qilganlarning ham ruhlarini chirqiratmaslik, bezovta qilmaslikni bizdan kuyunib iltimos qilib, ko'zlariga yosh olardi. Onamning o'sha paytda-

gi holati, ruhiyati ko‘z o‘ngimda takror-takror gavdalanmoqda.

Buvimning hikoyasini tinglab, ruhlanish va aybdorlik hislarini tuya boshladim. Ruhlanishimning sababi yurt tinchligi, xalq osoyish-taligi, Vatan himoyasi uchun jonini fido qilgan insonlar faqat kitoblarda emas, balki ajdodlarim orasida ham borligi men uchun faxrdir.





*Laylo
Ravshanbekova*

10-sinf o‘quvchisi

BAXTIYORMAN, MARDONAVORMAN

Baxtiyorman, mardonavorman,
Erkin ijod gul-u bog‘im bor.
Qaynoqbag‘ir ustozlarimning,
Bergan o‘gitlari betakror.

Osmonimda porlaydi Cho‘lpon,
Tunda mening yo‘lim oydin, oq.
Faxr etarga Konstitutsiyam,
Va Madhiyam bor, yana bayroq.

Kashfiyotlar bag‘ridadirman,
Til bilishga ishtiyoqim bor.

Sport bilan hamnafaslikda,
Dunyo ichra bo‘lgayman shunqor.

Qay zamonda ko‘rgan edingiz,
Yurt otasi quchgan qizlarni.
Yangi Vatan quvvatlamoqda,
To‘marisdek mangu izlarni.

O‘zbekiston, sen menga suyan,
Sen yashnasang, men hur-u shodman.
Men ko‘nglingda sadoqat bog‘in,
Gullatishga kelgan avlodman.





**Robiya
Mahmudova**

10-sinf o‘quvchisi

VATAN

Qayga bormay qalbda g‘urur, yurakda nur,
Yurak emas, vujudimsan o‘zing butkul.
Kuysan, nayning navosiday ajib, yolqin,
Ulug‘vorsan, yurakdagi qonim, Vatan!

Onamdirsan, malhami jon yuraklarga,
Mukofotsan, oliv ezgu tilaklarga,
Nomingni men olib chiqib yuksaklarga,
Poylaringga tuproq bo‘lay jonim, Vatan!

Chinor yanglig‘ sug‘orilding ziylardan,
So‘rasak “Baxt” senda derlar fidolardan,
Tushirmagay seni bobom duolardan,
Ko‘kni quchgan yengilmas shunqorim,

Vatan!

Humo bo‘lay qanot yozib osmoningda,
Yonib kuylay madhingni gul bo‘stoningda,
Yorqin yulduz bo‘lay bitta osmoningda,
Ikki dunyo borim o‘zing, shonim Vatan!

YOSHLIK...

Quyuq tumanlarga belanib yillar,
Ko‘zimni o‘raydi achchiq yoshlarga.
O‘rtanib, qo‘msaydi mahzun bu dillar,
Bosh qo‘yib yig‘lagim kelar toshlarga.

Yugurib, shamolday uchib borsaydim,
Xotira bayrog‘in quchib borsaydim.
Shirin xotiralar, sog‘indim seni,
Qaniydi, qaytsaydim, qayta olsaydim...

Kuzning yaprog‘iday mahzun bu ko‘ngil,
Bir on quchog‘ingda bo‘lgim keladi.
Bahor qaytar, qaytganiday qishlari,
Bir bor chamaningga qaytgim keladi.

Uzun yo‘ldan chopib borar bolalik,
Yetmas qo‘lim, chorlamoqqa so‘zsiz tillar.
Yuguraman, senga yetmay bolalik,
Ikkimizning o‘rtamizda uzun yillar.

Achinaman, shirin damlar sog‘inaman,
Nima qilay? Ojizman-da, odamlar.
Eslab yana tag‘in yig‘lab ovunaman,
She‘r bitaman, yodga tushib bu damlar.

Qadrligim, sog‘inch azob, sog‘inch dard,
Sog‘inch firoq, qiynaydi u odamni.
Qani edi bir iloji bo‘lganda,
Alishardim yoshligimga olamni...





Sarvinoz
Latipova
9-sinf o‘quvchisi

UMR

(Muhammad Yusuf she’riga nazira)

Umr nima, ey odam?
Umr yo‘ldir bir quloch.
Armon nima, ey odam?
Armon ham bir ehtiyoj.
Yurak nima, ey odam?
Goh tosh haykal, goh chaman.
Xayol nima, ey odam?
Dunyo kezuvchi saman.
Tuyg‘u nima, ey odam?
So‘qir ko‘zidagi yosh.

Orzu nima, ey odam?
Dengizga otilgan tosh.
Urush nima, ey odam?
Yozda yoqqan qordir u.
Tinchlik nima, ey odam?
Birlashganga yordir u.
Fursat nima, ey odam?
Kapalakning hayoti.
Maqtanchoq kim, ey odam?
Ucholmas qush qanoti!
Haq nimadir, ey odam?
Sinmaydigan tilakdir.
Baxt nimadir, ey odam?
Urib turgan yurakdir!

YO‘Q

Yo‘q!
Qo‘rqmayman!
Hammasi oson.
Qo‘l siltashim mumkin bariga.
Alishmasman umrim hech qachon
Yolg‘on,

Aldov
Qasamlariga.

Yo‘q!
Qo‘rqlayman!
Axir bu dunyo
Qo‘rqlarga qilmaydi shafqat.
Faqat sendan xavotirdaman,
Agar ketsam, qo‘rqmaysanmi, ayt?

Agar ketsam...
Mabodo qo‘rqsang...
Yanchib ketsa, dunyo seni ham,
O, yo‘q!
Bo‘ldi! Fikrimdan qaytdim –
Qo‘rqarkanman o‘ylab qarasam.





Sarvinoz
Dadajonova
9-sinf o‘quvchisi

ZULFIYAXONIMGA

Bahor sizdan andoza olgan,
Gul-yuzingiz husniga xushtor.
Siz tavallud topgan lahzada,
Gulzorimga kelgandi bahor.

Tonggi nasim mayin yuzingiz,
Silaganda boychechak kulgan.
Qahratondan zerikkan zamin,
Shu lahzada nurlarga to‘lgan.

Ijod sizga hamnafas bo‘lib,
Yo‘l yurdingiz – she’r bo‘ldi izlar.
Mana qancha yillar ortida,
Ko‘nglingizga havasmand qizlar.

Zulfiyasi bo‘lib o‘zbekning,
Har bahorda kelgaysiz yonib.
Shul bahona ko‘klam kulgaydir,
Qahraton qish zahrini yorib.

YAXSHILIK

1873-yilning iyul oyida Enriki Kelli Pensilvaniya universitetining tibbiyot fakultetiga hujjat topshirdi. Uning o‘qishlarida homiylik qiladigan oilasi yo‘q edi. U dars xarajatlarini qoplash uchun ishslashga majbur edi. Yoshligidan Enriki kattalar singari ishlar, ko‘chalarda shirinlik sotar edi. Yoshligidan orzusi shifokor bo‘lish edi. U kichkinaligidan iffatli bola bo‘lgan. Birovlarning qo‘liga qaramasdi. Ammo u bir kuni juda qattiq ochiqdi. Ovqat so‘rashga qaror qildi. Bir uyning eshigini taqillatdi. Eshikni uy sohibi bo‘lmish

Mike Bravning qizi Anna ochdi. Enriki ovqat so‘rashga hayo qilib, suv so‘radi. Ammo Anna Enrikining maqsadini bilgandek unga bir stakan sut bilan biskvit olib chiqdi. Bola uni yeb bo‘lib, dedi:

– Sizdan qancha qarzdor bo‘ldim?

Anna ham bolalarcha beg‘uborlik bilan dedi:

– Biz yaxshilik muqobilida hech narsa olmaymiz!

Bir necha yillar o‘tib, Anna bemor bo‘lib qoldi. Uni davolashdan mahalliy shifokorlar ojiz edilar. Annani poytaxtga olib kelishdi. Shifokor Enriki bemorning ismini eshitgan zahoti yugurdi. Darhaqiqat, u o‘sha Anna edi. Enriki atrofidagi shifokorlarga dedi:

– Shu lahzadan boshlab u mening bemorim!

Enriki amaliyotni muvaffaqiyatli o‘tkazdi. Anna shifoxonadan chiqayotgan paytda uning hisobchisi Anna to‘lov qilishi va imzo qo‘yishi kerak bo‘lgan qog‘ozga imzo chekish uchun Enrikining xonasiga kirdi. Ammo Enriki barcha qog‘ozlardagi raqamlarni o‘chirib tashladi va qog‘ozning ostiga hisobchi o‘shanda tu-

shunmaydigan bir jumlanı yozdi va unga berdi. Hisobchi qog'ozni Annaga bergenida u qog'oz ostidagi jumlanı o'qib, yig'idan o'zini to'xtata olmadi. Hisobchiga shirinlik sotadigan yosh Enriki bilan bo'lgan voqeа haqida hikoya qilib berdi. Hisobchi jumlaning ma'nosini endi tushundi. Anna amaliyotning narxini bir stakan sut va bitta biskvit bilan to'lab bo'lgan ekan. Qog'oz ostida: "Biz yaxshilik muqobilida hech narsa olmaymiz", deb yozilgan edi. O'zlariga qilingan yaxshilikni qaytarishga tayyor bo'lgan insonlar naqadar ajoyib kimsalardir!

Bundan ham ajoyibi yaxshilikni qilib, hatto rahmatni eshitmay ketib qoladigan insonlardir!





Jasmina
Komilova

9-sinf o'quvchisi

VATAN HIMOYACHILARI

Sen buyuk qahramon, sen buyuk shuhrat,
Tinchlik humosisan, samodagi nur.
Ezgulik elchisi, qat'iy bir jur'at,
Shaxdingga jo bo'lgan ilohiy surur.

Sen bir oy erursan, yulduzga chiroq,
Iftixorsan suyuk, barkamol, iqbol.
Eltib hurlik tomon, zulmatdan yiroq,
Senga hamohangdir yorqin istiqlol.

Yengilmas tog'dirsan, xalqingga suyanch,
Erkinlik timsoli – botir, pahlavon.

Butun O‘zbekiston bildirgan ishonch,
Bayraming muborak, ey o‘ktam o‘g‘lon!

OLISDAN XABAR...

Yana yo‘qlab kelar kuz,
Bargday to‘zg‘ir xayollar.
Sog‘inch menga yuzma-yuz,
Qish-chi, kelmay hayallar.

Qushlar qanotin qoqib,
Ufq tomon ketar hanuz.
Kapalak ko‘kka boqib,
Qanotin siltar ma’yus.

Bemurosa xayolda
Xotiralarim ilkis.
Seni menga eslatar,
Bizni yo‘qlab kelgan kuz.

MITTI YULDUZ

Bugun ko‘kda yulduz yo‘q,
Bari ulkan tuzoqda.

Bir yulduz porlaydi lek,
U ham oydan uzoqda.

Mening-chun hatto quyosh
Oydayin to‘lolmaydi.
Barcha chiroq bir mitti,
Yulduzday bo‘lolmaydi.

O‘sha yulduzni ko‘rsang,
Qo‘sinq yoz menga bir bayt.
Eslab sog‘inganingda,
Oyga mendan salom ayt.

QOR PARCHASI

Oynadan mo‘ralar qahratton ayoz,
So‘nggi yaproq titrar daraxt shoxida.
Ko‘chada izg‘irin, ko‘lmaklar sayoz,
Mitti qor parchasi uchar gohida.

Qalblarda quvonch va shodlik keltirib,
Yangi yil mehrini sochar barchaga.
Oppoq qor rangidan poyandoz to‘shab,
Sevgimni berkitib qo‘ydim archaga.

Qalblardan zulmat va qayg‘ular qochib,
Ko‘zlarda kulgu va quvonch urdi nish.
Qaynoq yuraklarga iliqlik sochib,
Beg‘ubor shodlikni olib kelding qish.

BOLALIK

Atrofda jo‘shqinlik roz etar mayin,
Qushlar chug‘urlashi qalblarga orom.
Yellar mayin esar har bir nafasda,
Oqshomning quvonchi etar dilni rom.

Quyosh shafaq tomon yuzin buradi,
Intilgan yuraklar ajib to‘lg‘onar.
Teraklar ohista o‘ylar suradi,
Bexos yuragimda sog‘inch uyg‘onar.

Senga ming chopsam ham tugamas sira,
Qishloq ortidagi shodon dalalik.
Yillar tortib olmas seni hech qachon,
Qalbimga berkitib qo‘ygum bolalik.



**Gulasal
Davronbekova**
9-sinf o‘quvchisi

BOLALIK

Chang ko‘cha, bolalik so‘qmoqlarini,
Go‘yoki bo‘rondek uchirib ketding.
Onamning mehrli to‘qmoqlarini,
Qaysar sho‘xligimga oshino etding.

Tandirda quyoshdek qizargan nonlar,
Uzoq qish kechasin juda sog‘indim.
Qaytib kelarmikan biz kutgan onlar,
Bobom ertaklarin eslab ovundim.

Bo'y cho'zgan rayhonni chakkaga taqib,
Arg'imchoq o'ynash-chun uydan qochardik.
Pishmagan o'rikning g'o'rasin qoqib,
Qand to'la sandiqning qulfin ochardik.

Lahzalar tez oqar daryodek go'yo,
Yurakni kuydirib, g'ashlab ketadi.
Bular umrimdagi eng laziz lahza,
Bolalik barchani tashlab ketadi.

KUZ....

Ko'kda kuz qanotin qoqmoqda, qara,
Kuz hukmi samoni to'latayotir.
Sen asta kezasan menga qaramay,
Xazonli bog'larda bamaylixotir.

Bargday to'kiladi siniqqan hislar,
Yomg'irday yer tomon singar butun tan.
Sen o'zga manzilga oshiqasan, oh
Va kuz kirib kelar yana qaytadan.

Muhammad Yusuf nomidagi *Jod maktabi*

Har kun takrorlanar kuz ibtidosi,
Har kun sarg‘ayadi yetmay bardoshim.
Va senga bitadi maktub. Istaydi:
Bir bahor ko‘rmoqni o‘n sakkiz yoshim,
Faqat kuzga to‘lgan o‘n sakkiz yoshim.





**Asaloy
Qobulsova**

9-sinf o‘quvchisi

XAYOL

Xayol – erkdan tug‘ilgan chaqin,
Quyosh bo‘lar tun qo‘ynida ham.
Yaxshilik deb nom qo‘ysang agar,
Bir mayizni teng ko‘rar baham.

Xayol – baland tog‘lar orzusi,
Zilol suvlar zamzamasi u.
Yor ishqida kuygan oshiqning,
Birov bilmas qahqahasi u.

Xayol – jonning qilichi, o‘qi,
Niyatingga sotilgan chipta.
Maqsad uchun qo‘ymasang qadam,
Orzularing qolgaydir shiftda.

VATAN

Bolaligimni eslashim bilan bir voqeа xayolimda gavdalanadi...

Bahorning iliq kunlari... Buvijonim yer qizigan payt ko‘loplatib suv separ, yoqimli yer hidi bilan birgalikda gullar tarovati butun uyni qamrab olardi. Shu payt uyimiz fayzli bo‘lib ketishi yodimda. Men esa darvoza labida joylashgan qaldirg‘och ini bilan olishardim. Birozdan so‘ng buvim meni koyib ketdi:

– Ha, qiz bo‘lmay qolgur! Qaldirg‘ochda nima ayb? O‘z vatanidan ayirma! – dedi, oldimga kelgancha. U paytlari bola bo‘lganligim uchun “VATAN” degan so‘z qulog‘imga notanish tuyuldi.

– Buvijon, vatan nima degani? – dedim, gapga chechanlik qilib.

— Ha, vatanmi, vatan bu tug‘ilib o‘sgan dargoh, hatto mana shu uy ham vatan hisoblanadi, — dedi shoshilmasdan

— Endi bildim, demak, bu uy ham qaldir-g‘ochning vatani ekan-da?!

— Faqat insonlarning emas, balki jonivorlarning ham vatani bo‘ladi. Shuning uchun sen bolalikdan ona yurting tuprog‘ini ardoqlasang, kelajakda vatan ravnaqi uchun hissa qo‘shuvchi yoshlari qatorida bo‘lasan.

Mening yurtimga bo‘lgan muhabbatim qaldirg‘ochning vatanidan boshlangan.

BUGUNGI MAVZU

Kuz... Atrofda sarg‘aygan, to‘kilgan barglar shamol chalgan kuyga raqs tushib turar, kitobim varaqlarini-da o‘ynardi. Yaqinda yomg‘ir yog‘-ganligi uchun daraxt yaproqlaridan tomchi tushib, varaqni nam qilar, men esa bunga e’tibor bermasdim, ammo avtobus kelgunicha...

Avtobusda odam ko‘p. Dushanba bo‘lganligi sabab, ulov to‘la men kabi o‘quvchilar. Barchasiga boshdan-oyoq nazar soldim, balki biror

sinfdoshim chiqib qolar deb. Qo‘limda yukim ko‘p, kitobim buklana boshladi. To‘g‘rimda farrishtadek bir onaxon qiynalayotganimni sezdi chog‘i, past ovozda:

- Kelaqol, bolam, qo‘lingdagilarni ber, – dedi oldini bo‘shatgancha.
- Yo‘g‘-e, qiynalayotganim yo‘q, yukim yengil, – dedim xijolat bo‘lib.
- Beraqol, – deya qo‘limdagini oldi-yu, yulkarimni tizzasiga qo‘ydi.

Ro‘mol chekkasidan oppoq sochlari ko‘rinar, yuzida esa bir-biriga tutashib ketgan ajinlar ko‘p edi. Menimcha, bu onaxon yolg‘iz yashaydi va ko‘p siqilgani yuzidagi ajinlardan bilinardi. Meni hayron qoldirgani esa gilam paypoq ustidan tepasi ochiq eskirib ketgan, yozgi oyoq kiyim kiyib olgani, onaxonning bu ahvoliga juda achindim. Bu istaralik ayolga qarab, qishloqda qolgan, meni sog‘ingan onam yodimga tusha boshladi. Shunda uzoq-uzoq o‘ylarimni bir tаниш овоз bo‘ldi:

- Ey, qanaqa tushunmaydigan odamsiz, vaqtim yo‘q dedim-ku, nima, esingiz joyidami, oyi? Avtobusdaman, tushib qo‘ng‘iroq qilaman, –

dedi-da, ovozini pastlatib g‘ijindi. Ajablandim, bu ovoz juda tanish, “qayerdadir eshitganman”, deya ortimga o‘girilsam, o‘qishimdagি Aliyev domla ekan...

Dars boshlanguncha kitobimni o‘qishga qaror qildim. Kitobni varaqlar ekanman, avtobusdagi ikkita ajablansa, arziydigan holat ko‘z o‘ngimdan ketmasdi. Birdan sinfda “Assalom” ovozi yangradi, men ham shular qatori o‘rnim-dan turdim-da, doska tomon nazar solsam, avtobusdagi Aliyev domla, negadir kayfiyati yaxshi bizga tabassum ohangda:

– Demak, hurmatli o‘quvchilar, mavzuni yo-zishni boshlaymiz, – dedi jurnalni varaqlar ekan.

– Bugungi mavzu “Onani e’zozlash – har bir farzandning burchi”.

Qo‘limdan ruchka tushib ketdi...

* * *

Bolalikning sodda, betashvish ko‘chalarini tark etib, balog‘at ostonasiga qadam qo‘yyapman. Ulg‘ayishning mas’uliyatini har qadamda his qilyapman. She’rlarimdagи o‘ynoqi ohanglar ham jiddiy lashgandek.



**Madinaxon
Obidova**

9-sinf o‘quvchisi

ONA TILIM

Ona tilim, jon-u dilim,
Senda ilhom, senda bilim.

Moziylarga tashlasam ko‘z,
Soqovdirsan, yig‘laydi so‘z.

Ko‘rdi kesib, ko‘rdi chopib,
Buloq ko‘zin bo‘lmas yopib.

Ne-ne zotlar yo‘lda toldi,
Oybek tilin tishlab qoldi.

Necha zamon otdilar tosh,
Yangrayverding ko‘tarib bosh.

Ulg‘ayding sen yo‘rgaklarda,
Tili chiqqan go‘daklarda.

Bugun baxtdan sarmast dilim,
Sen-la obod o‘ng-u so‘lim!

Ona tilim, jon-u dilim,
Senda ilhom, senda bilim.

**MUHAMMAD YUSUF
“MEHR QOLUR” SHE’RI**

Through the passing years, it journeys on,
Stars, like eyes, illuminate the dawn.
A person’s goodness lasts, it’s drawn,
Love remains, affection endures


In the courtyard of life’s abode,
It’s the one that has truly sowed.
In the universe, an eternal code,
Love remains, affection endures

Anor your face like charming
Khumor your eyes like charming
Unmemorable words like charming
Love remains, affection endures

Tohir vanished in the water
Zuhro remained crying over
Even when the end of the world comes
Love remains, affection endures

What do you say, oh envious being?
Your gossiping words set me a-bleeding.
Even if for a day, you're foreseeing,
Love remains, affection endures





**Muattarxon
Abjabarova**
9-sinf o‘quvchisi

ZULFIYA NOMIDAN...

Yanoqlarim o‘pdi “Hayot jilosi”,
“Shafaq” ko‘zgusida bahordir hokim.
“Iymanib aytmagan” senga bor so‘zim:
“Oftob, sen borlig‘im” kelgin, olgin tin.

Axir kuzday qurib, qishdayin qarib,
“Sog‘inib” kutyapman, yozdayin yonib.
“Ko‘zlari suzug”im kel, bahor endi
“Bu oqshom” mehringga olayin qonib.

“Qayda o‘z sevinchim?” qayda yuragim,
“Dolg‘ali bir hayot” qo‘ynidamanmi?

“Mening tongim” ko‘ringanda,
“Hayot jilosi”

Oqizib yuborgan ummondamanmi?

“Kuylama hijronni”, og‘irdir senga
Deganing nimasi “Bahor kechasi”,
Axir mendan yaxshi bilasan buni:
“Yurakka amr yo‘q” degan nechasi.

“Yillar” seni izlab, “Sohilda”, “Yo‘lda”
Adashib “Qolgandi qalbim bu yerda”.
Menga o‘tgan umrim “Isyon” qilmoqda,
“Orzuga ayb yo‘q” deb botdim terga...

Qanday go‘zal dam bu, qanday go‘zal on?
“Bog‘lar qiyg‘os gulda”, “Sahar men bilan”,
Ey “Visol bayrami”, Zulfiyang bugun,
Va nihoyat, bahor yana sen bilan!

HAMID OLIMJONGA BAG‘ISHLOV

“Derazamning oldida bir tup”
Har bahorda o‘rik gullaydi.

Baxt so‘zini chug‘urlar qushlar,
Baxt kuychisin izlar, tinmaydi.

Qirlardagi “qip-qizil lola
Bo‘lib go‘yo yoqut piyola”,
Shoirini qo‘msar, sog‘inar
Sibizg‘adan sizadi nola.

“To‘g sayri”ga chiqar shabboda,
Xonish aylar bulbul butog‘da,
Ishq qo‘limga tutqazdi qalam –
“Eng gullagan yoshligim chog‘da”.

Ona Jizzax gullagan makon
Baxtiyorlar Zaynab va Omon.
Bunyod etib gullagan vodiy
Oygul, Tarlon quvnagan zamон.

Bog‘ to‘rida shoir haykali,
Yaraqlaydi oltin zarhali.
“Odamlardan tinglab hikoya”
Dostonlari bitmamish hali.

Shoir ilhom og‘ushida jim.
Sadoqatli Zulfiyaxonim
Chekinganday abadiy firoq,
Topibdilar azaliy ishqin.

Ilmgohda yuzlab iqtidor,
Tashbih uzra men kabi bedor.
Nazm-u nasr – go‘zal bo‘stonda
O‘zgacha soz, o‘zgacha alyor.

Chappar urib gullar dalalar,
Yosh shoir ash’or saralar.
Sen kuylagan O‘zbekistonda
Inson qadri yuksak sanalar.

El shodligin kuychisi – Ustoz!
Ehtiromim sizga sarafroz –
Yurtim uzra yangrasin mangu:
“Faqat baxtni kuylagan ovoz!”



**Zulayho
Ergashaliyeva**
9-sinf o‘quvchisi

**ERKIN VOHIDOVNING
“TONG LAVHASI” SHE’RI**

Putting a bouquet on the horizon,
Heads up behind the proud mountains.
Then looked down slowly holding on,
A golden pencil, a painter stands.

He colours every paint with trimming,
Oh, Scene above the valley is drawn.
“The Sun” he signs - a touch of finishing,
Then gives a title “An Early Dawn”.



**Rayhona
Hakimova**

9-sinf o‘quvchisi

**ERKIN VOHIDOVNING
“QIZIQUVCHAN MATMUSA” SHE’RI**

Snow white shirt, new trousers,
Wears for the big festival.
Going back to home Matmusa,
In the evening, so handsome.

Returns to home, full of fun,
Adding power to power.
Once on his way someone,
Fastened something – paper

On the tip of the column,
There was written some letter.
Matmusa tries to read,
But each effort is a loafer.

Looked from the right side,
Then looked from another.
What is it, that worth to hide?
Can't stay calm, how appealer!

He has got an interest,
He wants to read with solemn.
Even don't spare new dress,
Climbs to the column.

Then he climbed, seen and read,
Who's that really stupid?
“Attention, look, the wire wood –
Is painted”, oh, says that.

He had read and right away,
He's covered with cold sweat.
Arrived home, dared to write
A poem by offended poet:

“I say, friends, don’t restrain
From knowing and finding out.
If you are so curious,
Don’t wear then a new dress!”

BETXOVENNING “OYDINDA” SONATASI

Yana...

Ko‘k toqida xo‘rsinadi Oy,
So‘ngsiz dardlariga guvoh, hoynahoy.
G‘iybatlar mavjiga yopiq qulog‘i –
Poklikka yo‘g‘rildi ijod bulog‘i.

Mazax ayladimi shum taqdir, qismat?!

Sokinlik qasriga mahkumdir faqat –
Zulmatga qorishgan oydin tunlari,
Yurakdan sizadi anduh... KUYlari.





**Sarvinoz
Xudoyberdiyeva**
9-sinf o‘quvchisi

**ERKIN VOHIDOVNING
“CHUMOLI” SHE’RI**

Taking the belt of ardour around waist,
Pulling a stick much bigger than itself,
Getting to the destination is the only dream-
Goes off the path, an ant quickly moving.

It doesn’t look around, works the whole day,
Hoping to add some corn to the crop....
No, the humans ancestor has not been a monkey,
The human has been spread from the ant, indeed.



**Muxsisa
Mahmudova**
9-sinf o‘quvchisi

**ERKIN VOHIDOVNING
“SURAT” SHE’RI**

I saw him somewhere I don’t know,
For some time I was confidant,
But what day, I can’t remember, how,
What time, what position, what moment.

A strange problem ascends in his eyes,
The dumb picture stares at me, hence.
Yes, yes, that is it...
As if I guess
That’s a lost piece of my existence.

One by one, they all pass in my eyes –
Something hazy and something unclear –
Somewhere, in some point of my past thoughts
A memory – wants to disappear.

My memory restores those moments,
All of them comes to my contemplation...
People,
You are my life and movement
Each of you – a part of my duration.





*Rohila
Ro'zimannopova*
8-sinf o'quvchisi

QOMUSIM

Xalqim uchun muqaddas kitob,
Inson qadrin aylagay xitob,
Erkinlikka boshlovchi oftob,
Sensan mening or-u nomusim,
Barhayot bo'l, buyuk qomusim.

Odamiylik unda mujassam,
Erkin yashar barcha millat ham,
Adolatga tayanib har dam,
Kelajakka yo'lchi yulduzim,
Barhayot bo'l, buyuk qomusim.

Qonun bilan qo‘ydik tamaddun,
Xalq manfaati har nedan ustun,
Islohotlar xalq, inson uchun,
Jahon ichra qonuniy so‘zim,
Barhayot bo‘l, buyuk qomusim.

Millatimni millat qilguvchi,
Fuqarolik davlat qurguvchi,
Yoshlarini qo‘llab, suyguvchi,
Ulug‘ xalq bor quvonar ko‘zim,
Barhayot bo‘l, buyuk qomusim.

Qonun borki, tinchlik hukmron,
Qonun borki, muqaddas inson,
Huquq, burchni bilaylik har on,
Qonun bilan anglayman o‘zim,
Barhayot bo‘l, buyuk qomusim!



HAMID OLIMJONNI ESLAB

(*Zulfiya tilidan monolog*)

1996-yil

Bahorning eng so‘nggi kuni...

Bugun...

Bahorimning eng so‘nggi kuni...

U ham tark etmoqda meni seningdek.

Seni uchratganim – tole kulgani,

Baxtli ayol yo‘qdir asli meningdek.

Sening nafasingni, sevging his qilib,

Qalam olsam bo‘lding, sen so‘z shukuhim.

Yuragim – sen o‘zing, dardim, quvonchim,

Go‘yo qo‘llaringdan tutganday ruhim.

Aytganday...

Sen ekkан o‘rik daraxti,

Shu bahor negadir erta gulladi.

Lek afsus...

Bir kun qor o‘z zahrin sochib,

Bevaqt guln to‘kkan daraxt yig‘ladi.

Menga yupanch bo‘lgan o‘rik gullari,
Zamin yuzin yopdi shamol tufayli.

Dedim:

– Kuyinma hech, ey sirdosh do‘stim,
Dardimiz bir bo‘ldi.
Taqdirda... mayli...

O‘rik gullarini poygakda ko‘rib,
Sen tomon yoyilgan poyandoz, dedim.
O‘sha kun tushimda mehmonim bo‘lib,
O‘sha kun...
Kun bo‘yi baxtiyor edim.

Sen aytding:

“Yig‘lama, kuyinma, erkam...
Mening uchun ham yoz,
Qalam tut”, – deding.
Men olov singari yonib o‘tsam ham,
Sen shu alanganing uchquni eding.

Bilmadim...

Sahar chog‘ ikki qush tinmay,
Nimalar deb sayrar,

Chiyillar tong payt.
Tushundim, go‘yoki sening nomingdan
Kuylasharlar menga ikki misra bayt.

Ha, bu – o‘sha qushlar
Senga har bahor,
Baxt-u iqbolingdan kuylashar edi,
Har tong ular “Oygul bilan Baxtiyor”
Ertagingni asta so‘ylashar edi.

Bilmam...
Balkim,
Menga shunday tuyular,
Suqlar shildirab der: dil izhoringni,
Qani endi, saqlab qola olsaydim,
Yil bo‘yi sen kutgan gul – bahoringni.

Eh, azizim,
Bu yil...
Ko‘klam ham senday
Shoshib keldi,
Menga sozini berdi,
Seni yod etuvchi maftunkor bahor

Nasib etarmikan,
Azizim endi...

Go‘yo yuzlarimni silab-siypalab,
Yellar ham menga ko‘p saloming aytdi.
Bu yil...
Kimir kutib turganday uni,
Bahor erta kelib, so‘ng erta qaytdi.

Yoz keldi...

Negadir yuragim notinch,
Ummim poyoniga shoshayotganday,
Go‘yo visol yaqin osmon ko‘shkida,
Yuragim hapqirib toshayotganday.

Sening yoding bilan yashadim doim,
Sadoqat kuyini kuylab o‘tdim men.
Kutib ol, yoningga bormoqlik uchun
“Vafo” yanglig‘ so‘nggi so‘zni bitdim men.

MILLAT USTOZI

Umrboqiy turkiylarning qasriga,
Qo‘yib ketgan eng mustahkam poydevor.
O‘zni anglab yetmoq uchun aslida,
Navoiyni o‘qib o‘rganing bir bor.

Avliyolar avliyosi – Navoiy,
Shoir desak, shoirlarning sultoni.
Har bir satri ipga terilgan durday,
Maqsadlarga chorlaydi so‘z ummoni.

Xalqni sevib, bo‘ldi “Millat quyoshi”,
Zulmat ichra porlab turgan buyuk nur.
Qalbingizga yetib borsa ziyosi,
Shunda sizni boshqaradi tafakkur.

Ma’naviyat piri bo‘lib so‘zlagay,
Ilm erur ikki dunyo gavhari.
Anglagaymiz hayot ilmini doim,
Intilamiz qalban buyuklik sari.

“Odamlarning naqshi” bo‘lgan Navoiy,
Tuganmas bir xazinadir merosi.
Yakqalamadir jahon uzra abadiy,
Navoiydir – millatimiz Ustozi!





Elnura
Norqulova

8-sinf o‘quvchisi

O‘ZBEGIMNING QIZIMAN

Majnuntolning novdasidek o‘rilgan bu
sochlarim,
Qaldirg‘ochning qanotiga andozadir qoshlarim,
Qalam bilan oshiq bo‘lgan nigohim – qarashlarim,
Men baxtiyor yurt farzandi, o‘zbekning sho‘x
qiziman.

Men Uvaysiy avlodiman, To‘maris surriyodi,
Zulfianing orzu qilgan hur kelajak shamshodi,
Hayo bilan o‘ralgandir momomeros imdodim,
Men baxtiyor yurt farzandi, o‘zbekning gul
qiziman.

Oyga boqsam oymomodan ajab sado keladi,
Yuragimga samolardan mayin sabo yeladi,
Ular mening ilhomimga yana ilhom beradi,
Men tinchlikni madh etuvchi, ozod yurtning
qiziman,
Kelajagi porlab turgan o‘zbekning yulduziman.

BAHOR, SEN UCHUN...

Maysalar so‘z boshlar shivirlab asta,
Daraxtlar kurtagin qilar guldasta,
Bobo quyosh bizga boqmaydi xasta,
Tabiat uyg‘onar bahor, sen uchun...

Olamga go‘zallik juda yarashar,
Go‘yoki baxt bilan dunyo qovushar,
Bizlarga ko‘klamoy mehr ulashar,
Fasllar chiroyi bahor, sen uchun...

Qaldirg‘ochlar sening izdosh, hamrohing,
Lolaqizg‘aldoqda sening nigohing,
Tonggi sabolarda uchar gulmohing,
Borliq intiladi bahor, sen uchun...

Muhammad Yusuf nomidagi *Jod maktabi*

Ko‘klamoy, kelishing muhabbat fasli,
Oshiqlik, sadoqat, ishq, vafo qasri,
Dillarga quvonch-u shodonlik asri,
Dunyo go‘zalligi faqat sen uchun,
Yangicha tarovat faqat sen uchun!





Kamola
Anorboyeva
8-sinf o‘quvchisi

MAQTANCHOQNING AHVOLI

Men bog‘ga ko‘rk beraman,
Suyar meni oshiqlar.
Men tufayli yigitlar,
Qiz yoniga oshiqar.

O‘xshatishar ma’shuqasin,
Yuzlarini yuzimga.
Lablarini mengzaydilar,
Gul-u g‘uncha-qizimga.

Mendek ayting qaysi gullar,
Gul safining oldida.

Mensiz oshiq borarmidi
Ma'shuqasin oldiga.

Atirgulning maqtanishi
Cho'zilmadi uncha ham.
Shamol kelib shu sho'rlikning
Nutqiga berdi barham.

Qarang do'stlar qanday ibrat –
Maqtov umri qisqadir.
Maqtanchoqlarning hukmiga
Qissadan shu hissadir.





**Sojida
G'ofurova**
8-sinf o‘quvchisi

ONA TILIM

Navoiydan meros bo‘lib qolgan tilim,
Davlat tili maqomini olgan tilim.
Yurtim uzra dovrug‘ini keng taratib,
Jahon ichra dong‘i ketgan ona tilim.

Barcha shoir she’rlarida mujassamsan,
Xalqing uchun, yurting uchun mukarramsan.
Dillardagi, tillardagi muhabbatsan,
Vatan ichra dong‘i ketgan ona tilim.

Muhammad Yusuf nomidagi *Jod maktabi*

Millatimning ko‘zgusi ham g‘ururisan,
Ko‘ngillarning ham qalblarning sururisan.
Insonlarni birlashtirib turuvchisan,
Butun olam nomin bilgan, ona tilim.





**Mohinabonu
Botirova**

8-sinf o‘quvchisi

KONSTITUTSIYA MADHIYASI

Bag‘ringdan ko‘klarga uchgaymiz baland,
Bunda qanot bo‘lgay – Bosh Qomusimiz.
Millat sha’ni deya kafolatlangan,
Jondan-da azizroq or-nomusimiz.

Naqorat:

Sen Amir Temurdek shonli faxriyam,
Konstitutsiyam mening – yangroq madhiyam!

Keksa-yosh, o‘g‘il-qiz bag‘ringda tengdir,
Qonunlar ustuvor – Haqdir kuchimiz.

Necha bir millatga quchoq ochgan sen,
Shunday millatsevar, sherdai kuchlimiz!

Naqorat:

Sen Davlat tayanchi – shonli faxriyam,
Konstitutsiyam mening – yangroq madhiyam!

Sen gender tenglikni qo‘llagan bitik,
Dunyo maydoniga yuzlangan xitob.
Inson qadri uchun, iqboli uchun,
Yana ming yillarga yo‘l olgan kitob.

Naqorat:

Sen yoshlar quvonchi – shonli faxriyam,
Konstitutsiyam mening – yangroq madhiyam!

Yangilan, yangi yo‘l, yangi bo‘stondir,
Har yangi novdangda barq ursin hayot.
Ijod maktabidan ijodkor bolang,
To‘yna bo‘lsin deb bitmish zo‘r bayot!

Naqorat:

Sen millat suyanchi – shonli faxriyam
Konstitutsiyam mening – yangroq madhiyam!



Marziya Bozorova

8-sinf o‘quvchisi

ASALARI

Uyimizda bor ari,
Oddiy emas bolar.

Qo‘nib toza gullarga,
Shifo berar dillarga.

Dadamga xo‘b o‘rgangan,
Halollikka o‘rangan.

Onamdayin mehnatkash,
Hisob berishar yakkash.

Quyoshni uyg‘otishar,
Gulzor tomon chopishar.

Jahli chiqsami yomon,
Qolmaysiz qochib omon!

Bir-biriga ish aytmas,
Rejasi bitmay qaytmas.

Bilganga muallimdir,
Bolaricha ta'limdir.

Bahor, kuzda shod qilgay,
Tanani obod qilgay.

Dadam rohat topadi,
Arilarni yopadi.

Shifo ber deb, kasalga,
Kelavering asalga.

ONAJON

Necha sinovlardan o'tib mardona
Tikanzor yo'llardan gullar terdingiz
Mehrga to'lganim, mehribonginam,
Ayting, bugun necha yoshta to'ldingiz?

Jannatim, jannatdan kelgan yagonam,
Boshimda parvona – malak bo‘ldingiz.
Kaftlari duoga to‘lib turganim,
Ayting, bugun necha yoshga to‘ldingiz?

Bugun ko‘ksim osmon, qutlayman sizni,
Tabriklar bitaman siz yayrang, kuling.
Marziya qizingiz so‘raydi dildan,
Onajon, to‘qson-u yuzlarga kiring.





Madinabonu Obidova

7-sinf o‘quvchisi

ORZULARIM

Orzularim bir jahon,
Yetishmoqqa bor imkon.

Boshimda go‘yo oftob,
Menga yordamchi – kitob.

Ilm – yo‘lim chirog‘i,
Ko‘rinmaydi qirg‘og‘i.

Orzular sari ildam,
Tashlarman katta qadam.

Ustozlarim tayanchdir,
Har nafasim quvonchdir.

Quyoshi bor xonamning,
Duosidan onamning.

Maskanim jon – maktabim,
Qondirgaysan matlabim!

Osmoningda to‘lgayman,
Yurtga sodiq bo‘lgayman!

Ijod maktabim uchun,
Sarf etaman bor kuchim!





Marjona Yakubova

7-sinf o‘quvchisi

GUL

Men oshiqman gullarga,
Huzur berar dillarga.
Iforini tutqazar,
Tonggi sabo-yellarga.

Rayhonga mehrim bo‘lak,
Avaylayman lolani.
Atirgulni sevaman,
Sevgandek shalolani.

Chinnigulning ko‘rkidan,
Bog‘imda kular chiroy.

Shu bois gulzorimdan,
Tez ketmaydi bahoroy.

Gul zavqidan ko'ksimda,
Unar go'zal tilaklar.
Bir keling gulbog'imga,
Yayrab ketsin yuraklar.

YOMG'IR

Yomg'ir yog'di samodan duv-duv,
Men tomchilar taftini sezdim.
Sochlaramni siladi mayin,
Yomg'irlarning bag'rida kezdim.

Har zarrasi pokladi dilim,
Dardlarimni sidirdi suvg'a.
Asta qo'lim tutdi-yu birdan,
Meni eltidib qo'ydi oquvg'a.

Samo – go'zal benazir gumbaz,
Zamin uchun yo'lladi bayot.
To'rt faslni yashnatmoq uchun,
Yog'avergin, ey obi hayot!



**Lolaxon
Kamoliddinova**
7-sinf o‘quvchisi

BOLALIK

Bolaligim qo‘lchalarin siltab menga,
Sho‘xliklarim asta ortda qolib borar.
Orzularim qanot qoqib o‘zi bilan,
Meni ulkan baxtlar sari olib borar.

Men tinglagan ertakdagi oymomojon,
Kelajakning yo‘llarini yoritmoqda.
Onajonim kaftidagi uzun duo,
Ko‘nglimdagi bor qo‘rquvni aritmoqda.

Do'stlarimni o'zgartirdim, ular endi,
Qo'g'irchoqmas shkaf to'la kitob bo'ldi.
Kelajagim yo'llarini yoritguvchi,
Tunda oy-u, kunduzlari oftob bo'ldi.

Endi mening yumushlarim juda ulkan,
El baxtiga himoyachi qiz bo'laman.
Nodirayi davron kabi she'rlar bitib,
Ustozimdek muallima qiz bo'laman.





**Mubina
Sharipova**
7-sinf o‘quvchisi

VATANIM MADHI

Yurtim, sening bog‘laring ichra,
Shabbodadek yelib sevaman.
Kunduz – quyosh, tuningda esa
Hilolingdek to‘lib sevaman.

Maysalaring – onam kiprigi,
Bo‘ylaringga qonib sevaman.
Haroratni o‘zingdan olib,
Olov kabi yonib sevaman.

Bola ko‘nglim orzularga lim,
Ming ohangga solib sevaman.

Tunda rasming yurakka o‘yib,
Tongdan ilhom olib sevaman.

Sevamanki muhabbatim mo‘l,
Ey, sevgimga mangu, makonim.
Qidirganlar ko‘ksimdan topsin,
Muqaddasim, O‘zbekistonim!

KITOB

Insonning husnini belgilar odob,
Har kim o‘z holicha qoldiradi iz.
Kimki buyuk bo‘lsa uning hukmida,
Kitobdan o‘zgasi bo‘lmaydi hargiz.

Kitobxon bo‘laylik azizim, do‘stim,
Samoni to‘ldirgan shu ma’rifatdir.
Dunyoda ne go‘zal, ne totli bo‘lsa,
Barchasi kitobdan bu haqiqatdir.

Kitob-oftob demak, yoritar yo‘lni,
Faqat istak bo‘lsin pok tilaklarda.
Hayot chamaniga yetaklar mangu,
Kitob kirib borgan har yuraklarga.



Ziyoda
Qahramonova
7-sinf o‘quvchisi

SHAMOL

Jahli chiqib shamolni birdan,
Quvib keldi yaproqchalarni.
Do‘q-po‘pisa etib o‘rikka,
Meva qildi yo‘lakchalarni.

Ona daraxt boshlarin egib,
Yig‘lagudek tikildi yo‘lga.
Sizni shoxda pishiraman deb,
Bermagandim bahorda do‘lga.

Bizga lekin bayram bo‘ldi zo‘r,
O‘rik sayli boshlandi birdan.

Quvvat berdik yurakka shu kun,
O'rikxo'rlik qildik chin dildan.

Rahmat aytib keksa o'rikka,
Tozaladim yo'lakchalarni.
Qishda chaqib yeymان-da, deya,
Yig'ib qo'ydim danakchalarni.





**Shohjahon
Rustamjonov**

11-sinf o‘quvchisi

HARBIYLAR

Vatan so‘zi qalbida,
Harbiy libos egnida.
Mag‘rur sergak turishar,
Viqor bilan yurishar.

Chegarachi, desantlar,
Askarlar-u serjantlar.
Qo‘rquv nima bilmaydi,
Ortiga chekinmaydi.

BAHOR

Yana bahor kelmoqda,
Daraxtlar gullamoqda.
Ayiqvoyning asali,
Gullarda uxlamoqda.

Chumolilar yayrashar,
Sumalak doshqozonda.
Sho‘x bulbullar sayrashar,
Yalla aytar azonda.

Gilam yozgan dalalar –
Chuchmomalar, lolalar.
Quchoqlarni to‘ldirib,
Terib oling bolalar.





**Mashhura
Po'latova**

11-sinf o‘quvchisi

AKAJON

Boringizga shukr, akajon,
Bir qorindan tushdik talashib.
Oilamiz baxti charog‘on,
Ulg‘ayyapmiz mehr ulashib.

Boringizga shukr, akajon,
Ko‘makchimsiz ishda, o‘qishda.
Atrofimda parvonadirsiz,
Maqsadingiz shodon ko‘rish-da!

Boringizga shukr, akajon,
Erkatoy, deb, dildan suyasiz.
Xafa qilsa kimdir bexosdan,
Ta'zirini berib qo'yasiz.

Boringizga shukr, akajon,
Ajratolmas hech kim begumon.
Suyanganim, bo'ling doimo
Ota-onam baxtiga omon!





*Mahfuzা
Rafiqova*

11-sinf o‘quvchisi

O‘ZBEKISTON BAYROG‘I

Hilpiraydi hamisha,
Hur o‘zbegin bayrog‘i.
Doim tinchlikka chorlar,
Hur o‘zbegin bayrog‘i.

Unda bordir yarim oy,
Latofatli bir chiroy.
O‘n ikki baxt yulduzi,
Vatanimning gul yuzi.

Undagi havo rangi –
Musaffo osmonimiz,

Qizil rangi misoli
Tomirdagi qonimiz.

Oppoq rang esa xuddi
Pok dildagi jonimiz.
Yashil rangi – yam-yashil
Beadog‘ o‘tlog‘imiz.

Hilpirayver hamisha,
O‘zbegimning bayrog‘i.
Doim tinchlikka chorla,
O‘zbegimning bayrog‘i!





Nodirbek
Nabijonov

11-sinf o‘quvchisi

DARYO

Amudaryo, Sirdaryo,
Bag‘ri juda keng daryo.
Shiddat bilan oqadi,
Baliqlarga yoqadi.

TEMUR BOBOM

Amir Temur bobomlar,
G‘olib, mag‘rur bobomlar.
Ezgulik urug‘ini,
Sochgan botir bobomlar.

Kuch birlikda, deganlar,
Jasurlikda, deganlar.
Ajdodlarning ruhini,
Asrab-avaylaganlar!

YURTIM

Yurtim, seni taniydi jahon,
Tilda doston, O‘zbekistonim!
Chiroyingga ko‘zlar tegmasin,
Chamaniston O‘zbekistonim!
Onamdayin yaxshi ko‘raman,
Otamdek mehribon bo‘stonim.

DIYORIM

Ey do‘stim, shu tuproq meniki,
Mehrim unga baxsh etar chiroy.
Mustaqil vatanim bag‘rida,
Boshimda porlagay to‘lin oy.

Adabiy-badiiy nashr

*Muhammad Yusuf
nomidagi
Fod maktabi
o'quvchilarining ijodidan
namunalar*

Muharrir Said Ashirov
Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov,
Musahhihlar: Dono To'ychiyeva, Iroda Umarova,
Adolat Mustafoyeva
Kompyuterda sahifalovchi Hilola Sharipova
Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2024-yil 6-iyunda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$, Times New Roman garniturasi.
Ofset bosma. 3,4 shartli bosma taboq. 2,7 nashr tabog'i.
Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69